O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI

2023
20- Iyul

ISSN: 2181-3302



5.963
2023 Impact Factor



Exact
Natural
Medical
Technical
Economics
Philological
Pedagogical
Social sciences and humanities







Google Scholar zenodo OpenAIRE doi digital object identifier OPEN ACCESS

“O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR” JURNALI

«BEST PUBLICATION»

Ilm-ma’rifat markazi ©

MATERIALLARI TO‘PLAMI

20-IYUL, 2023-YIL

21-SON

O‘ZBEKISTON
2023

	AMIR TEMURNING HARBIY YURISHLARI VA HARBIY TAKTIKASI	
30.	**Tojiboyeva Muqaddasxon Raxmatjon qizi** *O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI*	**165**
31.	**Jumayeva Sh.B., Xayritdinov Otabek Murotjon o`g`li** *SIFATLI TA`LIM TIZIMINI BARPO ETISHDA CHET EL TAJRIBASI (FINLANDIYA, SINGAPUR MISOLIDA)*	**169**
32.	**Dehqonova Zuhraxon Ilhomjon qizi, Abdulhamidova Zarnigor Anvarjon qizi** *BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT FANINING METODI HAMDA TADQIQOT USULLARI*	**172**
33.	**Abdullayeva Madinabonu Muxmudjon qizi, Otaqulov Baxtiyor Dilmurodjon o‘g‘li** *BUXGALTERIYA HISOBI. BUXGALTERIYA HISOBOTINI TEKSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI.*	**179**
34.	**Abdusattorova Madinabonu** *WOMEN'S CONTRIBUTION TO THE BUSINESS SECTOR*	**185**
35.	**Турдиев Сарвар Илхомович** *ЎҒИРЛИК ЖИНОЯТИНИНГ ЖИНОИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ*	**190**
36.	**Турдиев Сарвар Илхомович** *УЙ-ЖОЙДА СОДИР ЭТИЛГАН ЎҒРИЛИК ЖИНОЯТЛАРИ БЎЙИЧА ҲОДИСА ЖОЙИНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШДА ЮЗАГА КЕЛАДИГАН АСОСИЙ МУАММОЛАР ВА ҚИЙИНЧИЛИКЛАР*	**195**
37.	**Жумаев Лазиз Ражабович, Бабаджанова Дилноза Давлатназаровна** **Хикматова Гулхайе Зиедуллоевна** *КОМПЛЕКСНЫЙ ОБЗОР ПАТОГЕНЕТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ ОДОНТОГЕННОЙ НЕВРАЛГИИ*	**201**
38.	**Садыкова Э.И** *ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ СТРЕСС У СТУДЕНТОВ В ПЕРИОД ЭКЗАМЕНАЦИОННОЙ СЕССИИ*	**213**
39.	**Parpiyev Oybek Abduraxmonovich** *O‘ZBEK MILLIY KURASHI VOSITASI YORDAMIDA YOSHLARNI MA’NAVIY–AXLOQIY TARBIYASINI OSHIRISH.*	**220**
40.	**Ro‘ziyeva Maxliyo Qayumovna** *QISQA MASOFAGA SUZUVCHILARNING KUCH QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH*	**225**
41.	**Islomov Islomxo‘ja Azimxo‘jayevich** **Djurayev Elyorjon Madaminovich** *O‘RTA MAKTAB O‘QUVCHILARINI JISMONIY TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.*	**232**
42.	**Mamatov Avaz Agzamovich** *MILLIY O‘YINLAR YORDAMIDA MAKTAB O‘QUVCHILARINING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH.*	**239**
43.	**Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna** *TABIIY FANLAR DARSLARI JARAYONIDA KRITIK FIKRLASHGA O‘RGATISHDA INTERFAOL METODLARNI O‘RNI*	**246**
44.	**Karimov Abrorbek Adxamjon o’g’li** *MEHNAT RESURSLAR VA MEHNAT UNUMDORLIGINING QISHLOQ XO’JALIGIDAGI AHAMIYATI*	**250**
45.	**Qurbonov G‘ayrat Rejapovich** *VOLEYBOLCHILARNING SAKRAB IJRO ETILADIGAN TEXNIK USULLARINI SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY SIFATLARNING O‘RNI*	**257**
46.	**Allomov Erkinjon Ibragimovich** *JISMONIY TARBIYA DARSLARINI O’QITISHDA XARAKATLI O’YINLARNI QO’LLASH USLUBLARI*	**264**
47.	**Nuriddinova Dilobar Shukurovna** *PROFESSIONAL AND COMMUNICATIVE COMPETENCE OF THE FUTURE TEACHER OF THE GERMAN LANGUAGE AND ITS DIDACTIC MEANING*	**270**
48.	**Ф.Турабоева** *СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕХАНИЗМА ТУРИСТИЧЕСКОЙ РЕАКТИВНОСТИ В РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА*	**275**
49.	**Bozorova Mohidil Yo’ldoshovna** *BEPUSHTLIK: SABAB VA YECHIMLARI (ICHKILIKBOZLIK, KASHANDALIK VA FARZANDSIZLIK O’ZARO BOG’LIQMI)*	**279**
50.	**Тохирова Хулкар Толибовна** *МЕЪМОРИЙ ЁДГОРЛИКЛАРДА КОМПОЗИЦИЯЛАРНИНГ ЎРНИ*	**282**
51.	**Muxammadiyeva Sevara Bahodirovna** *TALABALARNING O’ZINI O’ZI BAHOLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI*	**285**
52.	**Safarova Nigora Nasilloyevna** *BO’LAJAK O’QITUVCHILARNI KASBIY KOMPETENTLIGINI RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH*	**290**
53.	**Qambarov Mirzobobur Bahodir o'g'li** *BO’LAJAK OLIY MA’LUMOTLI MUTAXASISLARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONINI RIVOJLANTIRISHNING AMALDAGI HOLATI VA TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI*	**297**

BO’LAJAK OLIY MA’LUMOTLI MUTAXASISLARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONINI RIVOJLANTIRISHNING AMALDAGI HOLATI VA TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI

Qambarov Mirzobobur Bahodir o'g'li
Buxoro davlat universiteti,
pedagogika kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, yuksak madaniyat egasi bo‘lish, o‘z faoliyatida yuksak cho‘qqilarga erishish, mamlakat taqdiri va kelajagi uchun ma’suliyatli, salohiyatli, shijoatli, mustaqil fikrlaydigan, yoshlarni tarbiyalash uchun oliy ta’lim tizimida bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislarning faoliyatini tashkil etish va boshqarish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Chunki bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis o‘zining aql-zakovati va ilmini o‘quvchi yoshlarga berishi bilan ularni yuksak madaniyat egasi bo‘lish, yuksak cho‘qqilarni egallashda ustozlik vazifalarini amalga oshiradi.*

Kalit so‘zlar: *bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis, tarbiya, boshqarish, pedagogika, metodika, ta’lim.*

Аннотация: *Овладевать современными знаниями, быть обладателем высокой культуры, достигать высоких вершин в своей деятельности, воспитывать молодых людей, ответственных за судьбу и будущее страны, обладающих потенциалом, амбициозных, самостоятельно мыслящих и находятся в системе высшего образования.Организация и управление деятельностью высокообразованных специалистов является одной из актуальных проблем. Потому что будущий высокообразованный специалист, передавая свой интеллект и знания молодым студентам, выполняет задачи по их наставничеству, чтобы они стали обладателями высокой культуры и достигли высоких высот.*

Ключевые слова: *будущий специалист с высшим образованием, образование, управление, педагогика, методика, образование.*

Annotation: *To master modern knowledge, to be the owner of a high culture, to reach high peaks in their activities, to educate young people who are responsible for the fate and future of the country, have potential, are ambitious, think independently, and are in the higher education system. Organizing and managing the activities of highly educated specialists is one of the urgent problems. Because the future highly educated specialist, by imparting his intelligence and knowledge to the young students, fulfills the tasks of mentoring them to become owners of high culture and achieve high heights.*

Key words: *future specialist with higher education, education, management, pedagogy, methodology, education.*

KIRISH

Prezident Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida “Farzandlarimizning iste’dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo‘lib qoladi”... Shu maqsadda biz “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” doirasida umumta’lim maktablarida birinchi marta “Tarbiya” fanini joriy etmoqdamiz” deb ta’kidlashi xalq ta’limi xodimlari maktab bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislari oldiga ulkan vazifalarni qo‘ydi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda bugungi kunda zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirishi, yuksak madaniyat egasi bo‘lish, o‘z faoliyatida yuksak cho‘qqilarga erishish, mamlakat taqdiri va kelajagi uchun ma’suliyatli, salohiyatli, shijoatli, mustaqil fikrlaydigan, yoshlarni tarbiyalash uchun oliy ta’lim tizimida bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislarning faoliyatini tashkil etish va boshqarish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Chunki, bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis ta’lim mazmunini rivojlantirish, o‘quvchilar bilimlarini chuqurlashtirilgan tarzda o‘qitish, ularni turli sohalarga yo‘naltirish, ta’lim jarayonlarida islohotlarni amalga oshirish, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalash, xorijdagi ilg‘or tajribalarni chuqur o‘rganish, yangi g‘oyalarni o‘z faoliyatida amalga oshirish, o‘quvchi – yoshlarni yanada faol, yanada tashabbuskor bo‘lish, o‘quvchilarning tafakkuri, dunyoqarashi, talab va ehtiyojlari, ziyraklik, talabchanlik sifatlarini yanada oshirish, ta’lim-tarbiyaviy ishlar metodikasi, shakl va metodlarni tashkil etishda ilm-ma’rifatga asoslanish kabilarni amalga oshirishga mas’ul shaxs xisoblanadilar. Chunki bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis o‘zining aql-zakovati va ilmini o‘quvchi yoshlarga berishi bilan ularni yuksak madaniyat egasi bo‘lish, yuksak cho‘qqilarni egallashda ustozlik vazifalarini amalga oshiradi. Shuni alohida taakidlash kerakki, o‘zbek xalqi xayotida tarbiya zamon iqboli bo‘lib, odamlarni xurmatlash, bilim egallash, bilimdonlikni his etish, tushinish, kishilarning butun kuch-g‘ayratini odob axloq egasi bo‘lishga chorlab kelgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Abu Nasr Farobiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Abu Rayxon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Ibn Sino kabi buyuk allomalar, odamlar ichidan yetishib chiqqan barcha olimu fozillar, shoiru yozuvchilarning barchasi o‘z davrining nufuzli, hurmatli, e’tiborli darajasiga tarbiya orqali erishganlar. Tarbiya insonning aql,-idroki, bilimi, kamtar, insonparvar, iordali va e’tiqod, yetuklik sifatlarini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni mutassil ravishda egallash, ota bobolarimizning faoliyati va ularning yoshlarga ko‘rsatgan g‘amxo‘rliklari o‘rganishda hidoyat sari yetaklaydi. Tarbiya so‘nmas ma’shala sifatida farog‘at saltanatiga hech bir zahmatsiz yetkazish, yurish-turishda xurmat va izzatda bo‘lish kabi inson kamolotiga oid fazilatlarni rivojlantiradi.

Tarbiya har qanday sharoitda ham nurli cho‘qqilariga yetishish yo‘lini ko‘rsatishi bilan birga kishi zehnini, fikrini qilich kabi o‘tkir qiladi va har bir shaxsga ozuqa berib, madaniyat, insoniyat, ma’rifat dunyosiga olib kiradi. Yomon odamlardan, buzuq ishlardan qaytaradi. Yaxshi xulq va odobli bo‘lishga, e’tiqodlarini oshirishga xizmat qiladi. Natijada kishilar xar yerda aziz va xurmatli bo‘ladilar. Kishi hayotidagi ishlarni haqiqiy to‘g‘ri yo‘lga soladigan vosita bu – tarbiyadir. Shuning uchun ham xalq orasida tarbiya orqali oliy fazilatlarga, ulug‘likka va orzu istklarga erishgan buyuk kishilar qadrlanadilar. Tarbiya yaxshi yomonni tanish, halol-xaromning farqiga borish, do‘stlik va qarindosh-urug‘ning fazilatlarini anglash, qonun-qoidalarni tushinish, haq-huquqlarini bilish kabi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan sifatlarni kamol toptiradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislarning qobiliyatlari, istedodlarini yanada qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ta’lim muassasalari faoliyatini boshqarish va tashkil etishning maxsus tizimini yaratish, tarbiyaviy ishlarni olib boradigan bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislarni tayyorlash jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmatni shakllantirish, ularning ma’naviy, axloqiy, intelektual va jismoniy rivojlanishi darajasini yanada oshirish, bilimlarini takomillashtirish asosida ilm –ma’rifat bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish, o‘quvchi-yoshlarni kamolotga yetkazish, o‘z ishida aniq natijalarga erishadigan, XXI asrda hamma narsaga qodir bo‘ladigan, dunyoga taniladigan, sog‘lom tafakkurga ega bo‘ladigan ustozlar faoliyatini tashkil etish kabilarga davlat siyosati darajasida ahamiyat berilmoqda. Chunki, bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda istiqbolli rejalarni ishlab chiqishi va unda har bir tadbirning mazmuni, mudatlari, mas’ul ijrochilar va mo‘ljallanayotgan tadbirlarni samaradorlik darajasiga ahamiyat berishi muhim o‘rin tutadi. Shu munosabat bilan bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis o‘quv tarbiya jarayonlarini taxlil qilish, turli uslublarni qo‘llash, ongli ravishda faol fikr yuritish, bilimni safarbar qilish, o‘zi bajaradigan barcha ish jarayonlarini mustaqil ravishda amalga oshirish kabi tajriba va pedagogik mahoratga ega bo‘lishi zarur. Buning uchun bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis o‘z maqsadini amalga oshirish, tashabbus ko‘rsatish, qat’iyatlik bilan o‘ylab qarorlar qabul qilish va ularni izchil sur’atda bajarish, rejaga amal qilish jarayonlarida irodali, xis-tuyg‘u, ezgulik, ehtiyoj, kuchli va matonatli bo‘lishi o‘quvchilarda ona yurtga sadoqat tuyg‘usini rivojlantiradi.

Shiddat bilan o‘zgarayotgan yangi O‘zbekistonda o‘quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatlilik, diniy va milliy bag‘rikenglik, ma’naviy, fuqaroviy, madaniyat kabi fazilatlarni shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda. Chunki dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to‘g‘ri baho bera olish, ijtimoiy muammolarni hal etishda to‘g‘ri qaror qabul qilish, hayotda o‘z o‘rnini topish bilan bog‘liq bo‘lgan aniq maqsadlarni shakllantirish, oila-jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning uzilib qolishining oldini olish, loqaydlik, huquqbuzarlik, "ommaviy

madaniyat"ning turli ko‘rinishlaridan saqlash imkoniyatini yaratishda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan ham bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislar tarbiya ishlarini tashkil etish va boshqarishda ilg‘or pedagogik tajribalarni aniqlash, o‘rganish va ularni ommalashtirish, ilmiy-tadqiqot izlanishlarini amalga oshirish o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, o‘quvchilar tarbiyasida oilaning maktab bilan o‘zaro samarali hamkorligini mustahkamlash, ota-onalarga, boshqa millat va madaniyat vakillariga bo‘lgan hurmatni umuminsoniy tamoyildan kelib chiqib shakllantirishni qo‘llab-quvvatlash, bola huquqlarini himoya qilish va ularning qonuniy manfaatlarini ta’minlash, "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" tamoyiliga asoslanish, ma’naviy- axloqiy jihatdan muammosi bor yoki tarbiyasida bo‘shliqlar mavjud bo‘lgan yoki notinch oila farzandlari, jinoyatchilikka moyil bo‘lgan yoki profilaktik ro‘yxatda turadigan yoshlar bilan individual tarzda ishlash tizimini takomillashtiradi. Shu munosabat bilan bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislar "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" tamoyilining mazmun va mohiyatini o‘quvchilarning ongu tafakkuriga singdirish, o‘quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyalarini mustahkamlash, mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, teran ma’rifatlilik, bag‘rikenglik, milliy, ma’naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o‘zlarining intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish yoshlar o‘rtasida uchrayotgan salbiy holatlarning asl sabablarini aniqlash va oldini olish, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni keskin kamaytirishga qaratish milliy g‘urur va iftixor, moddiy va ma’naviy merosni asrab-avaylashga qaratilgan insonparvarlik tuyg‘usini tarkib toptirish kabilarni amalga oshirishlari tarbiya jarayoning asosini tashkil etadi.

Ushbu jarayonda, bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislar tarbiya jarayonini boshqarishda davlat ta’lim standartlari talablariga asoslangan holda o‘quvchilar bilim va hayotiy ko‘nikmalarini mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, yangi avlod tarbiyasiga oid o‘quv-metodik majmualarini yaratish va amaliyotga joriy etish asosida ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish, ularning o‘quv materiallarining to‘liq o‘zlashtirilishi natijasida fanlar mazmun-mohiyatini to‘liq anglash va hayotga tatbiq qilish, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik madaniyatini shakllantirish fan-texnikaning eng so‘nggi yutuqlari bilan tanishtirish, o‘quvchilarni fikrlashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o‘tkazishga o‘rgatishda yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, va bilimlarini o‘zlashtirish darajasini hisobga olinish kabilarni amalga oshirish tarbiya samaradorligini oshiradi.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni yangi O‘zbekistonga munosib qilib tarbiyalash o‘z navbatida bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislar faoliyatini davr talablari asosida tashkil etishni talab qiladi. Shuning uchun ham hozirda yangi O‘zbekiston istiqboli uchun kurashchi, chuqur ma’suliyatni his qiladigan yoshlarni tarbiyalashda eski usullardan voz kechib, sharqona va demokratik jarayonlar asosida jamiyatga hurmat,

mustaqillikni mustahkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo‘lish kabi fazilatlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Ana shu talablar asosida o‘quvchilarning hayot tajribasi, axloqiy madaniyati shakllanib boradi. Bu yoshda yigit va qizlar jamiyatda, jamoada, ijtimoiy hayotda o‘z o‘rinlarini topishga, mamlakat oldida turgan ulkan vazifalarni hal etish uchun kurashga faol ravishda qo‘shiladilar. Shu sababli o‘quvchilarni jamiyat manfaati uchun qilinadigan bunyodkor ishlari uchun ilhomlantirish bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasisning eng muhim vazifasi hisoblanadi. Chunki har bir bolaning jamiyat hayotida ishtirok etishi tarbiyaviy ishning muhim samarasi sifatida millat istiqboli, taraqqiyoti bilan bog‘liq muammolarni milliy birdamlik va milliy hamkorlik tuyg‘ularini rivojlantiradi. Bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislar dars va darsdan tashqari jarayonlarida O‘zbekistonda “Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakati tashkil etilgani va uning maqsadi do‘stlik, hamjihatlik, hamkorlik, bir-birini qo‘llab quvvatlashga qaratilganligini o‘quvchilariga tushintirishlari lozim.

Bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislar “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” tamoyiliga asoslangan holda yoshlarni ona-yurtga sadoqat ruxida tarbiyalash, ularga tashabbuskorlik, fidoiylik, axloqiy fazilatlarni shakllantirishga tayyor bo‘lishlari muhim. Bu o‘rinda bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasisning ilm-ma’rifati shundaki o‘quvchilarning jamiyatga bo‘lgan munosabatini, ta’lim-tarbiya ishlarini, o‘zbek xalqining tarixi, ma’naviy qadriyatlari, respublikamizning istiqboli bilan chambarchast bog‘liq xolda olib borish natijasida ularda faxrlanish, milliy manfaatlarni amalga oshirishga intilish, boshqa xalqlar va millatlarning milliy qadr-qimmati udumlari, tarixi, adabiyoti va san’atini o‘rganish tuyg‘ularini shakllantiradi.

Bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis o‘zining faoliyatida malakali va tajribali, chuqur bilimga ega davlat va chet tillarni, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va o‘qitishning innovatsion uslublarini bilishi, klaster metodi asosida boshqa tashkilotlar, yirik kompaniya va birlashmalar bilan aloqada bo‘lishi asosida ta’lim mazmunini takomillashtirishi, milliy va jahon adabiyoti, musiqa, kino, haykaltaroshlik, amaliy san’at va boshqa ijodiy yo‘nalishlardagi bilimlarga ega bo‘lishi, ta’lim jarayonida axborot yangiliklarini joriy etish, zamonaviy talablarni hisobga olgan holda va tasdiqlangan meyorlardan kelib chiqib, yangi o‘quv laboratoriya, ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish, maktab o‘quvchilarida ijodiy tanlovlar, test va boshqa sinovlar asosida ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini, istedodini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar olib borishi kabilar ta’lim-tarbiya samaradorligini oshiradi.

Albatta bunda bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasisning malakali va yuqori komponentga ega bo‘lishi, o‘quvchi-yoshlarga hozirgi kunda dunyoda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni ularning ongi va qalbiga yetkazishi muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonda bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis O‘zbekiston xalqining tarixiy va milliy ananalari, ma’naviy qadriyatlari hamda jahon madaniyati yutuqlari bilan o‘quvchilarni tanishtirishi, ularda ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorligini rivojlantirishi, ularning tashabbuslarini qo‘llab quvvatlashi va o‘zaro munosabatlar

orqali bir biriga ishonch, o‘ziga va o‘zgalarga halol, haqiqat bilan qarashi, o‘z oldidagi ma’suliyatini to‘laqonli his eta olishga tayyorlashi kerak. bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis tarbiya jarayonida o‘quvchi shaxsini o‘rganishi, ularning ishonchini qozonishi, o‘zaro tushinishga erishishda to‘g‘ri yondashuvni qo‘llash, manfaatlarini xisobga olgan xolda o‘zini jozibador tutishi, o‘z munosabatlarini ifodalashi, his tuyg‘ularini sezishi va ularga ko‘mak berishda zamonaviy va oqilona tizim yaratishi, tadbirlarni adolatli tashkil etishi kabilar ularda inson va jamiyat haqidagi tasavvurlarini shakllantirish, ijodiy fikrlash, hayotda faol ishtirok etish va tashabbus ko‘rsatishga oid ijtimoiy-psixologik munosabatini qaror toptiradi. Shu jihatdan ham bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis jamiyat, davlat va oila oldida o‘z ma’suliyatini his etadigan, davlatning ichki va tashqi siyosatini to‘g‘ri anglaydigan vatanparvar va xalqparvar shaxsni shakllantirshga e’tibor qaratishi, o‘quvchi faoliyatini ziyraklik, diqqat bilan kuzatishi, ularga yordam berishi, muammolarni muhokama qilishi, to‘g‘ri qarorlar qabul qilishi jarayonida suhbatlar, so‘rovnomalar, testlar o‘tkazish asosida ularning fikri, dunyoqarashini o‘rganish, xato va kamchiliklarini aniqlash imkoniyatini beradi. Ushbu jarayonda ta’lim-tarbiya natijalarini o‘rganish, xulosalar tayyorlashda bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasisning nazariy, uslubiy tayyorgarlik darajasi, pedagogik mahorati va shaxsiy sifatlari muhim o‘rin tutadi.

Bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislarda tarbiya jarayonini boshqarish madaniyatini rivojlantirish bu –uning ahloqiy fazilatlarga ega bo‘lish san’ati va ko‘nikmasini amalga oshirish, ishbilarmon, bilim darajasi, ustozlik mahorati, ongi, jamiyatdagi obro‘si, o‘zini ijobiy tarzda namoyon qilishi, maqsadli ravishda ish olib borishi, dunyoqarashi, tanqidiy fikrlashi, jamoadagi muhitni sezishi, eng muhimi olib borayotgan ish faoliyatini aniq rejalashtirishi, turli-tuman vaziyatlarni tahlil qila olishi, o‘quvchilarning o‘ziga jalb etishi va ishontira olishi, so‘z bilan ish birligini ta’minlashi kabilar uning asosiy kompetentsiyasi xisoblanadi. Bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislar tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda o‘z vazifasini puxta va halol bajarishi, o‘quvchilar faoliyatini takomillashtirish va ularning ma’suliyati va ma’naviyatini yuksaltirishda o‘z samarasini ko‘rsatadi bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasisning kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega bo‘lishi, tarbiya jarayonini boshqarishda har tamonlama to‘g‘ri qarorlar qabul qila olishi, belgilangan maqsadlarga erishishda aniq vazifalarni belgilab beradi. bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis nafaqat ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishda, balki jamiyatning taraqqiy etishida katta kuch vazifasini bajaradi. Shuning uchun har qanday bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis avvalo, o‘z o‘quvchilarining hayotiy darajalarini puxta bilishi va bu sohada iloji boricha katta tajriba hosil qilishi muhim. Tarbiya jarayonini adolatli boshqarish tizimi, avvalo, o‘ziga nisbatan shubha uyg‘otmaslik uchun jamiyat qonunlarni puxta va chuqur o‘rganib chiqishi va o‘quvchilarni ularga ishontirishi katta mustahkam asos va tajribaga ega bo‘lish imkoniyatini yaratadi. Tarbiya jarayonini adolatli boshqarish o‘quvchilarning qonunlarga ehtiyoj sezishi va ularni o‘rganib, unga amal qilishlari ularning xulq atvor va xatti – xarakatlariga sabab bo‘luvchi to‘g‘rilik,

odoblilik, kamtarlik, xushyorlik, saxiylik, muruvvat va tabiiy xususiyatlarini rivojlantiradi. Bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislar tarbiya jarayonini boshqarishda o‘zaro hamjihatlik va tenglik tamoyiliga amal qilgan xolda o‘z ishidan ogoh bo‘lishi va bexato ishlashi, o‘quvchilarning bilib yoki bilmay qilgan xatolarini bartaraf etishga yordam berishlari muhim hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki o‘quvchilar ko‘p jihatdan bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislariga tahlid qiladilar. Ushbu jarayonda bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis to‘g‘ri yo‘l tutsa o‘quvchilar ham to‘g‘ri yo‘l tutadilar. Bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislarda tarbiya jarayonini boshqarishning ko‘lami juda keng. Ushbu tizimida mamlakatning ijtimoiy-siyosiy tamoyillari, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy hayot, qadriyatlar, an’analar va boshqa bir qator jihatlarini maktab faoliyatida amalga oshirish bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasisning faoliyati, texnologisi, xulq-atvori, usullari bilan bog‘liqdir. Albatta bu o‘rinda bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis o‘quvchilarga ta’sir etishi. Tarbiya jarayonini boshqarish faoliyatining o‘ziga xos ko‘rinishini ifoda etadi va ijobiy natijalari bilan xilosalanadi. Buning uchun bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislar tarbiya jarayonida axborot manbalaridan olingan barcha ma’lumotlarni tahlil etadi va uning asosida aniq harakatlarni amalga oshiradi.

Tarbiya jarayonida boshqarish madaniyatini vazifasi, mazmuni, amalga oshirish shakli va o‘z usullari, murakkablik darajasi ushbu jarayondagi muammolarning ko‘lami, murakkabligi, miqdori va tuzilishi, ular o‘rtasidagi aloqa, qo‘llanilayotgan usullarning, tashkiliy tamoyillarning turli-tumanligi, yangilik darajasi, talab etilayotgan o‘zgarishlar, noan’anaviy yondoshuvlar bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislarda mas’uliyatlilik xususiyatlarini rivojlantiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasisning tarbiyaviy ishlarni boshqarish kompetensiyasi ma’nan sog‘lom, keng dunyoqarashga ega, o‘zi va boshqalar bilan til topishib, atrofda bo‘layotgan voqealarga munosabat bildira oladigan o‘quvchi shaxsini voyaga yetkazishdir. Tarbiya bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis hayotidagi eng asosiy, muqaddas vazifalarni sabr- qanoat va ishonch, qatiyat, chidam va bilim bilan amalda qo‘llash o‘quvchining dunyoga bo‘lgan munosabatini, istak va xohishlarini to‘g‘ri yo‘l bilan bildirish, uni rag‘batlantirish, ruhlantirish, suhbatlashish, qiynayotgan savollarga javob topish, o‘rni kelsa, birgalikda o‘yinlar o‘ynash kabilar tarbiyaviy ishlarni boshqarish madaniyatiga xosdir. O‘quvchi jamiyat qadriyatlarini, avvalo oilada, maktabda o‘rganadi. Ahloq-odob qoidalariga amal qilgan o‘quvchi har qanday sharoitda o‘zlarini tutishlari, tarbiya o‘chog‘i sanalgan oilada bolalar sinfdoshlarini kuzatishlari va fanlarni o‘zlashtirishlari bilan har lahzada turli olamda bo‘layotgan turli o‘zgarishlarga munosabat bildirish muhim hisoblanadi. Har bir o‘quvchining o‘z dunyosi o‘ziga xos qarashlarini bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis anglashi ularga me’yoridan ortiq qattiqqo‘llik qilmasligi uning ruhiy holatini takomillashtiradi. Shuning uchun ham bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis o‘quvchilarning dunyosiga

kirishi va ulardan talab qilinayotgan bilim, faoliyat, tajriba sohibi bo‘lishlari uchun shart-sharoitlar yaratish zarur.

Tarbiya jarayonini boshqarishda maktab pedagogik jamoasi o‘quvchilarda o‘zaro munosabatlar, vazifalar, ichki va tashqi muhit, faoliyat, o‘z ishini o‘z vaqtida bajarish, o‘zini anglash kabi xususiyatlarni shakllantirishga ta’sir etadi. Ushbu jarayonda bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis nafaqat oddiygina g‘oyalarni ifodalash yoki o‘z nuqtai nazarini amalga oshirishi balki uning davomida o‘quvchilarni o‘rganishi bilan birgalikda faoliyat, muzokoralar olib borishi, ishonchni qozonish, o‘zaro tushinish, to‘g‘ri yondoshish, bir biriga hurmat, munosabat o‘rnatish, ularni eshitish ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi muhim hisoblanadi. bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis o‘quvchilar uchun jozibador bo‘lish bilan birga ularni anglashi lozim. Tarbiya jarayonini boshqarishning eng samarali usullaridan biri bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis o‘z nuqtai nazarini ko‘rgazmali shaklda, rangba rang, kutilmagan, hayotdan olingan voqealar va misollar bilan taqdim etilishidir. Tarbiya jarayonini boshqarishning mahoratli ustasi auditoriyaning emotsional holatini sezishi va unga to‘g‘ri munosabat bildira olishi, bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis o‘z hissiyotlarini bosib turishi, ba’zida esa, aksincha ularni tashqariga chiqarib tashlashlari uning mahoratli ekanligini namoyon etadi. Chunki ushbu jarayon bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasisdan ziyraklikni, diqqat bilan faoliyatini rejalashtirish va uni amalga oshirishni talab etadi. Shuning uchun ham tarbiya jarayonini boshqarishda faoliyat olib borayotgan maktab direktori, bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislar, sinf rahbarlari muammolarni hal qilish, o‘quvchilarning pozitsiyasini o‘zgartirish, mavjud dallilar to‘g‘riligini tasdiqlovchi holatni atroflicha tayyorlash va ularga to‘g‘ri yondoshish, kuzatish kabilar ularning ma’naviy faoliyatida hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim omilga aylanadi va tarbiya jarayonini boshqarish samaradorligini ta’minlaydi. Tarbiya jarayonini boshqarishda bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis o‘tkazilayotgan tadbirlarning izchilligi va uning ishonchiligiga ta’sir etadi. O‘quvchi faoliyatidagi zarur bo‘lgan masalani ijobiy hal etadi. Uni burchakka tiqib qo‘ymay unga “o‘z siymosini saqlab qolishga” imkoniyat yaratadi. Ushbu jarayonlar bevosita bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasisning imiji va maqomini oshiradi.

Bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislar tarbiyaviy ishlarni boshqarish madaniyatini rivojlantirishda o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondirish, maqsadga erishish, kelishishga yordamlashish usullarini muvaffaqiyatli amalga oshirish, o‘z ustida ishlab, qiziqrli va mazmunli tadbirlarni tashkil etish ularni yodida bir umr esda qoladi. Tarbiyaviy ishlarni boshqarish jarayonida bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasisning ma’lum malaka va tajribalari mashqlar orqali takomillashtiriladi. Shu jihatdan ham o‘quvchi shaxsini rivojlantirishdagi tajribalarni tahlil qilish yo‘l qo‘yilan xatolarni topishga imkon beradi. Ushbu jarayonda o‘quvchilar faoliyatidagi kamchiliklarni qanday bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatish, muhokoma etilayotgan masalani yaxshi bilish, do‘stona munosabatda bo‘lish, ta’lim oluvchilarda muhim ahamiyatga ega. Chunki, tarbiya ta’lim

ishlarini boshqarishda ijobiy taassurotlarni yuzaga keltirish, o‘quvchilarga ta’sir etish bilan birga ushbu jarayonlarni ular ishonchli tarzda qabul qiladilar.

Har bir bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasisning o‘ziga xos tarbiya usullari bor. Bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasisning hulq- atvori, orzulari, maqsad va yutuqlari o‘quvchining o‘ziga xos bo‘lib yetishishiga ta’sir qiladi. O‘quvchidagi kamchilik va xatolarni aniqlashda, dastlab bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis uning muomalasini o‘rganish sezilarli natija beradi. Bola o‘zida aynan ota-onasining fazilatlarini mujasamlashtirmasa-da, tarbiya jarayonida bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis o‘quvchilarga mehr berib, ularni qo‘llab-quvvatlash, ko‘maklashish, sevish va sevilish kabi go‘zal tuyg‘ularni rivojlantiradi. Tarbiya esa o‘quvchilarga bilimlar, qoidalar, qadriyatlar, shaxsning ijtimoiylashuvi uchun kerak bo‘lgan barcha an’analarni amalga oshiradi. Bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis o‘quvchi tarbiyasi darajasini aniqlash uchun ma’lum boshqaruv tizimini yaratishi va ushbu jarayonda ulardagi sevgi, mehr va tarbiya jihatlariga e’tibor berishi va uning har bir istagini amalga oshirishi, ular o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi. Tarbiya jarayonini boshqarishda belgilangan tartibga amal qilish o‘quvchining hatti- xarakatlarini qat’iylik bilan talab etish ularda bilimlarni kengaytirish, darrov muloqotga kirishish, adashgan insonni kechirish, unga ko‘maklashish, kechirimli bo‘lish, o‘ziga va atrofdagilarga ishonish, mehribon bo‘lish, yaxshilik qilish, ko‘mak berish tuyg‘ularini rivojlantiradi. Bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasisning o‘quvchilarga nisbatan mustaqil va tenglik muhitini yaratishi, o‘ta muloyim munosabatda bo‘lishi tarbiyalanuvchilarda mustaqil fikr va axloqni shakllantiradi. O‘quvchining to‘g‘ri va noto‘g‘ri, yaxshi va yomonni ajratishini bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis uning o‘ziga qo‘yib beradi. Unga nima qilish yoki nimani qilish mumkin emasligi to‘g‘risida berilgan yo‘nalishlar o‘quvchi haq-xuquqlarini rivojlantirishga qaramay belgilangan tartibga bo‘ysinishi qat’iy talab etiladi. Mazkur boshqaruvni tanlagan bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis “Mening o‘quvchim ideal fazilatlar sohibi bo‘lishi lozim”, deb hisoblaydi va hech qachon unga tazyiq o‘tkazmaydi. bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis o‘quvchining maqsadi va harakatlari, hayot sinovlarida ko‘makchi bo‘lib, uni baxtli qilishni o‘ylaydi. Bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasisning muloyimlik bilan boshqaruvi o‘quvchi shaxsining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Tarbiyaviy ishlarni boshqarishda bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis fikrlash, ekstremal holatlarda ishlay olish layoqati, noxush xolatlarga qarshi tura olish, aloqa, hamkorlik, ixtiloflarga bardoshlilik, mehnatdan qoniqish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, faoliyatini loyihalashtirish, o‘zini o‘zgartira olish kabi kompetentlarga ega bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Chunki ushbu jarayonlarda bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasisning qanday kasbiy va psixologik sifatlarga ega bo‘lishi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi. Bunday yondoshuvda boshqaruv, tashkiliy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy- axloqiy, iqtisodiy-xo‘jalik kabi vazifalardan kelib chiqqan holda har bir bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis ma’suliyat bilan olib borilgan tarbiya

ishlarini tahlil etish, nazorat qilish va muayyan mazmundagi xulosalarni tayyorlash mumkin.

Bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasisning o‘ta nozik, noyob xususiyat va alomatlar, insoniy fazilatlarga ega bo‘lishi, yangi fikrlarni bildirishi o‘zining ta’sirchanligi, qat’iyat va irodasi bilan o‘quvchilarni boshqarishi, uni turli qaltis qadamlardan asrab, to‘g‘ri yo‘lga boshlashga xar qanday sharoitda ham ularning ruhini ko‘tarish, lo‘nda qilib aytganda, har qaysi ta’lim oluvchining yuragiga yetib borishga, uning kuchiga kuch, ishonchiga ishonch, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shishga qodir bo‘lishi shart.

Buning uchun bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis tarbiya jarayonida o‘z maqsadini aniq belgilashi o‘quv faoliyatini rivojlantirishi, axborotlar bilan tanishtirishi, muloqot qilishi, ular shahsini har tomolama o‘rganishi, tarbiya shaklini tanlash va tashkil etish, o‘quv faoliyatini loyihalash, to‘g‘ri munosabatlarni o‘rnatish, maktab mamuriyati bilan hamkorlik qilish mahoratiga ega bo‘lishi muxim hisoblanadi. Darhaqiqat, maqsadga intiluvchanlik, ma’suliyatlilik, ijodga moyillik, namuna ko‘rsatish kabilar bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis va ta’lim oluvchilarning o‘zaro bir-birini tushinishlariga imkoniyat yaratadi. bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis tarbiya ma’zmuni va usullarini amalga oshirishda o‘quvchilarning yoshi va individual-psixologik hususiyatlari va natijalarining afzalliklari va kamchiliklariga etibor qaratishi bilan birga har bir mashg‘ulotda o‘z pozitsiyasi, ijodiy jihatlari, o‘zini o‘zi idrok etish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Ushbu jarayonda bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis tegishli ma’lumotlarni egallashi va ularni qayta ishlashi, tajribalarda qo‘llashi muxim. Chunki, bugungi kunda jamiyatning ta’lim xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojining kundan-kunga oshib borishi bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis ma’suliyatini yanada rivojlantirishni talab etmoqda. Ushbu jarayonda bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis faoliyatining kompitenti muhim o‘rin tutadi.

XULOSA

Bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis kompitenti bu umumiy tushuncha bo‘libgina qolmay, balki o‘z- o‘ziga nisbatan munosabatlar, o‘z-o‘zini anglash va jamoani mustahkamlash, ta’limni rivojlantirish haqida ma’lumotlarga, tajribalarga ega bo‘lish, o‘z faoliyatini ijodiy tashkil etish, maktab pedagogik jamoasida, oilada, jamoat tashkilotlari uzviyligida bolalar tarbiyasini doimo nazorat qilishni takomillashtirish o‘z samarasini beradi. Bu o‘rinda bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis o‘z faoliyatini doimo baholab borishi, ya’ni o‘tgan yilda qanday faoliyat ko‘rsatdim? Qanday yutuq va qiyinchiliklarga ega bo‘ldim? Bu yilgi o‘quv yilida qanday tarbiya ishlarini amalga oshiraman? Kelajakda o‘zimni qanday tutishim kerak? kabi savollarga o‘zi javob topishi muhim o‘rin tutadi. Bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis o‘z faoliyatida xar-bir o‘quvchi shaxsiga bir butun sifatida qarashi bazibir, qarama-qarshililarni bar-taraf etishda va tizimlarni birlashtirish ishlarini amalga oshiradi. Bunda bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasis dunyoni anglaydigan va tushunadigan darajada bilimga ega bo‘lishi va egallagan ma’lumotlari va tajribalari asosida o‘z faoliyatini xatti-harakati takomillashtirishi bilan birga o‘z-o‘zini idroq qilish va baholashidan namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda tarbiya ishlarini boshqarish mamlakat va jamiyat ijtimoiy- siyosiy hayotining barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Tarbiya ishlarini boshqarish faoliyatida ma’naviy-axloqiy xususiyatlarining ustuvorligini takomillashtirish, shuningdek, bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislarning tafakkurida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, maktab jamoasini jipsligi, ma’naviy barkamolligi hamda jismoniy sog‘lomligi, demokratik hamda umummilliy taraqqiyoti tahdidlariga qarshi tura olish kabilar bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasisning maqsadli faoliyatining natijalari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mardonov S., Toshtemirova S., Ahmadjonov B., & Koshanova N. (2020). Structure and Mechanisms of Action of the Educational Cluster. International Journal of Psychological Rehabilitation, 24(07), 8104-8111.

2. Usarov Djabbar Eshkulovich, & Suyarov Kusharbay Tashbaevich. (2020). Developing Pupils’ Learning and Research Skills on the Basis of Physical Experiments. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(02), 1337-1346.

3. Ernazarova G. O., & Islamova M. Sh. (2019). Sovershenstvovanie podgotovki k professii uchaщixsya professionalnыx kolledjey na osnove akmeologicheskogo podxoda. Pedagogy & Psychology Theory and practice International Scientific Journal, 6(26), 52-55.

4. Jabborova O. M. (2020). Psixologicheskie funksii, formiruyuщie xudojestvennoe soznanie studentov. Pedagogicheskie nauki, 1(46), 144-145.

5. Ismailova D. M., & Karimov S. Sh. (2019). Aktualnыe problemы texnologicheskogo obrazovaniya shkolnikov. VЫSShAYa ShKOLA Nauchno-prakticheskiy jurnal, (22), 6-8.

6. Jabborova Onahon Mannopovna, Jumanova Fatima Uralovna, & Mahkamova Shohida Rahmatullayevna. (2020). Formation of Artistic Perception of Future Teachers. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(4), 4087-4095.

7. Jabborova Onaxon Mannopovna, & Ismoilova Dilafruz Muhiddinovna. (2020, May). Optimization of primary education. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(5), 1229-1232.

8. Mamadaliev K. R., Jabborova O. M., Umarova Z. A., & Abdullayeva B. P. (2020). Creation of a New Generation of Teaching Literature - A Requirement of Modernity. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(1), 612-619.